



CHARM MATOSIGA MILLIY NAQSHLARDAN FOYDALANIB AYOLLAR UCHUN USTKI KIYIM DIZAYN LOYIHASINI ISHLAB CHIQISH

Boymatova Kamola Abduraxmon qizi

Namangan to'qimachilik sanoati instituti

“Dizayn” kafedrası t.f.f.d

E - mail: kamolaboymatova@gmail.com

Ibrohimova Durdona Muxsinjon qizi

Farg'ona Politehnika instituti Yengil Sanoat va

To'qimachilik fakulteti M30-24 TBTKI guruh magistranti

E-mail: urdonamominova9902@gmail.com

Rahmonova Sarvinozxon Abrorjon qizi

Farg'ona Politehnika instituti Yengil Sanoat va

To'qimachilik fakulteti M30-24 TBTKI guruh magistranti

E-mail: rahmonovasarvinozxon5@gmail.com

Annotatsiya: Zamonaviy ayollar ustki kiyimlarini loyihalashda, charm matosidan foydalanib o'zbek milliy naqsh va ornamentlari bilan bezab yangi turdagi zamonaviy ayollar ustki kiyimini loyihalasini ishlab chiqish.

Kalit so'zlar: So'zana, naqsh, kostyum, charm, kashta ornament, dizayn, kompazitsiya.



Abstract: In designing the outerwear of women, using a new type of modern women with Uzbek national patterns and ornaments using leather fabrics.

Key words: suzana, pattern, embroidery, embroidery, design, composing

Аннотация: Создать новый вид современной женской верхней одежды, украшенной узбекскими национальными узорами и орнаментами с использованием кожаной ткани.

Ключевые слова: Словарь, узор, костюм, кожа, вышитый орнамент, дизайн, композиция.

O'zbekiston mustaqilikka erishgach, shu vaqtgacha xom ashyo bazasiga aylanib kelgan Respublikamiz ishlab chiqarishning barcha tarmoqlarida o'zining takomillashgan qayta ishlangan mukammal mahsulotlarini ishlab chiqarish tadbirlarini ko'ra boshladi va bu borada anchagina muvofaqqiyatlarga erishdi. Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyotini ko'tarish, import mahsulotlari hamda xom ashyolarining kirib kelishini kamaytirish uchun xalq xo'jaligining rivojlanishi, katta ahamiyatga ega. Zamonaviy ustki kiyimlarini mavsumiy kastyum loyihasini qurishda hozirgi kunda charm matosidan keng qo'llanilib kelmoqda. Hayvon terilardan charm olish qadimiy hunarmandchiliklardan biri hisoblanadi. Qadimda odamlar hayvon terisini charmga aylantira bilishgan. Charm terisini olishning eng birinchi usuli, hayvon terisini shu hayvonning yog'i bilan ishlov berib, bir necha marta qo'l bilan ishqalab ishlov berishdan iborat. Shu asosda hayvon terisini yog' bilan oshlab birinchi charm olish texnologiyasi yaratilgan. [1] Charm - hayvon terisidan yoki sun'iy xom ashyodan tayyorlanadigan material. Charm tabiiy va sun'iy turga ajratiladi. Tabiiy charm hayvonlar: qoramol, ot, qo'y, echki, cho'chqa, tuya, bug'u, kiyik, suv hayvonlari, it, ayrim baliq va boshqa hayvonlarning terisini oshlab tayyorlanadi. Sun'iy charm polimer xom ashyo materiallardan tayyorlanadi. [2] Biz bilamizki charm terisidan hozirgi kunda ayollar va



erkaklar, bollalar ustki kiyimlari, oyoq kiyimlar, sumka karman va bir necha boshqa turdagi assartimentlar ishlab chiqarilmoqda. Tadqiqotda charm gazlamasidan ayollar ustkiyimini loyihalashda tabiiy va suniy charmdan foydalanilgan .

1-rasm



Kashtachilik san‘atida har bir millatining o‘ziga xos eng ko‘p qo‘llaydigan naqshlari bo‘ladi. O‘zbek kashtalarida o‘simliksimon geometrik shakl hamda gul naqshlari ko‘p qo‘llaniladi. Tadqiqotda yangi turdagi ayollar zamonaviy ustki kiyimini loyihalashda milliy o‘zbek so‘zana naqshidan foydalanildi.

So‘zana (fors. — igna bilan tikilgan) — mashina yoki qo‘lda matoga kashta tikib tayyorlanadigan badiiy buyum. Ip gazlama, shoyi, baxmal kabi sidirg‘a matolarga turli choklar (bosma, yo‘rma, popop)da kashta tikiladi. Kashta zamini sifatida mato rangi So‘zana koloritini hosil qilishda muhim rol o‘ynaydi Naqsh mujassamoti markaziy maydon (aylana gul va boshqalar) va hoshiya (takrorlanuvchi 1—2 naqsh bo‘lagi)dan tuzilgan to‘rtburchak, murabba shaklga ega bo‘lib, asosan, o‘simliksimon (ba‘zan tasvirli, syujetli) naqshgullardan iborat.




“NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA’LIMNING INNOVATSION YO’NALISHLARI”



So‘zananing badiiyligi, nafosati chevarning mahorati, uning ijodiy didi bilan belgilanadi. Ayniqsa, zardo‘zlikda tayyorlanadigan so‘zanalar jilosi, jozibasi bilan ajralib turadi. Suzana O‘zbekiston va Tojikiston hududida qadimdan keng tarqalgan. Samarqand, Buxoro, Toshkent, Shaxrisabz va boshqalarda o‘ziga xos tarzda tayyorlangan so‘zanalar kashtasi, naqshi, rangi jihatdan xilma xil bo‘lib, ulardan namunalar respublika va xorijiy mamlakatlar muzeylarida, xususiy to‘plamlarda saqlanadi. Zamonaviy ayollar ustki kiyimlariga milliy o‘zimizning o‘zbekona kashta naqshidan foydalanib yanada jozibador ayollar ustki kiyimini loyihasi qurishda milliy naqshimizning dunyo miqyosidagi brend dizayn liboslari kabi yangi assortimentning loyihasini qurish va ayollar uchun mavsumiy charm matosidan tikilgan kastyumlarga bezak sifatida suzana naqshidan foydalanib zamonaviy kastyum libosi loyihasi qurildi. Zamonaviy charm matosidan ayollar mavsumiy ustki kiyimlariga milliy kashtalar tushurilsa bunda milliylik yanada barqarorlashuviga va ayollar milliy liboslarini yanada boyishiga olib keladi. Milliy orlamentlardan iborat kashta ommalashuviga xizmat qiladi.





2-rasm.Charm matosidan yangi madeldagi libos loyihasi.

XULOSA

Ushbu tadqiqot davomida charm matosi tahlil qilindi, tahlildan so'ng, ishlab chiqilgan mahsulot ko'rinishini tavsiflovchi kontseptual dizayn ishlab chiqildi. Olingan natijalar asosida zamonaviy ustki kiyimlarni bezashda o'zbek milliy naqshidan foydalanib yangi turdagi ayollar kastyum loyihasi ishlab chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. Temirova va T.Qodirov. Charm va Moyna texnologiyasi. Toshkent Turon Iqbol. 2005
2. X.X.Kamilova,N.A.Isaxo'jayeva,K.R.Fuzailova "Kastyum kreativ grafikasi"Toshkent 2017
3. O'zbekiston milliy ensiklopedyasi 2000-2005
4. 2. G.K.Xasanbayeva M.Sh. Shomansurova "Mahsus kompozitsiya" Toshkent 2007-yil



5. <https://www.dhresource.com>
6. <https://ae01.alicdn.com>